

YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH -- DAVLAT SIYOSATINING USTUVOR VAZIFALARIDAN

**Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li Urganch davlat pedagogika instituti
Filologiya va tarix fakulteti talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatimizda yoshlarni tadbirkorlikka keng jalb qilish, ularning biznes g'oyalarini va tashabbuslarini qo'llab –quvvatlash borasidagi ishlar ko'rsatib beriladi. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, davlat maqsadli jamg'armasi tashkil etilishining zarurati va ahamiyati, shuningdek, ushbu jamg'armaning vazifalari haqida so'z yuritilgan. Yosh tadbirkorlarga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar tahlil qilinadi. Ushbu maqolada yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ahamiyati va davlatning bu boradagi asosiy vazifalari yoritiladi.

Kalit so'zlar. Yoshlar tadbirkorligi, yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, imtiyozlar, imtiyozli kredit, xorijiy investorlar, yaratilgan imkoniyatlar va sharoitlar.

DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IS ONE OF THE PRIORITIES OF STATE POLICY

**Egamov Yusufboy Urgench State Pedagogical Institute student of faculty
of Philology and history**

Annotation. In this article, work will be provided in the field to attract youth in entrepreneurship, to support their business ideas and initiatives. The development of youth entrepreneurship, the need and importance of the establishment of the State Taleg Regulation has also been discussed about the tasks of this fund. Opportunities, benefits for young entrepreneurs are analyzed. In this article, the importance of the development of youth entrepreneurship and the main tasks of the state are covered in this area.

Keywords. Youth Entrepreneurship, Youth Entrepreneurs Support Fund, Privileges, Privileged Loan, Opportunities, Opportunities and Conditions.

РАЗВИТИЕ МОЛОДЕЖНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА ЯВЛЯЕТСЯ ОДНИМ ИЗ ПРИОРИТЕТОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ

Эгамов Юсуфбой Эргашбекович

Ургенчский государственный педагогический институт

Студентка филологического и исторического факультета

Аннотация. В этой статье будут предоставлены работы для привлечения молодежи в предпринимательстве, для поддержки их бизнес -идей и инициатив. Развитие молодежного предпринимательства, потребности и важность создания государственного регулирования Талега также обсуждались о задачах этого фонда. Возможности, преимущества для молодых предпринимателей анализируются. В этой статье в этой области рассматриваются важность развития предпринимательства молодежи и основных задач государства.

Ключевые слова. Молодежное предпринимательство, фонд поддержки молодежных предпринимателей, привилегии, привилегированные кредиты, возможности, возможности и условия. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida har bir davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bu – yoshlarning iqtisodiy faolligidir. Xususan, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish orqali nafaqat ularning bandligi ta'minlanadi, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va innovatsion rivojlanishga ham erishiladi. Shu boisdan, O'zbekiston Respublikasida yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda[1]. Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishi va innovatsion taraqqiyoti uchun muhim omillardan biridir. Davlat tomonidan yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning biznes boshlashiga imkon yaratish va motivatsiyasini oshirish jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yosh tadbirkorlar yangi g'oyalar va innovatsiyalarni hayotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo'lib, mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim

harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. Yoshlar tadbirkorligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan muammolarni yechishga yordam beradi.

Yurtimizda yoshlarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning bandligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilmoqda. Dastlab, bu borada davlat organlari tomonidan mustahkam asosiy yaratildi. Ilk bora "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"[2]gi qonunda "Yoshlar tadbirkorligi" tushunchasiga ta'rif berildi. Unga ko'ra **"Yoshlar tadbirkorligi"** — yuridik shaxs tashkil etmagan holda yosh fuqarolar tomonidan, shuningdek ta'sisчилari yosh fuqarolar bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlik faoliyati" dir.

Yurtimizda aynan tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha yana bir muhim manbalardan biri "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar"[3] to'g'risidagi qonun hisoblanadi. Ushbu qonun Yoshlarning tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko'nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yaqindagina Prezidentimiz tashbbusi bilan "Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, 2025–2027 yillarda quyidagilarni nazarda tutuvchi "Yoshlar biznesi" dasturi doirasida 350 mingta yoshni qamrab olinadi, shu jumladan, 18 yoshga to'lgan va 30 yoshdan oshmagan shaxslar uchun

kamida 100 mingta qo'shimcha ish o'rinlari yaratiladi. Yosh tadbirkorlarga kompleks xizmatlar ko'rsatiladi, ularning faoliyatini

moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida AT "Aloqabank" tayanch "yoshlar banki" etib belgilandi.

2025 yil 1-martgacha AT “Aloqabank”ning hududlarda yoshlarning innovasion g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalarni tijoratlashtirishga hamda moliyalashtirishga ko‘maklashish (“Startaplar”) loyihasi respublikaning barcha hududlarida amalga oshiriladi va loyihaning hududlardagi bo‘linmalari malakali kadrlar bilan to‘ldiriladi.

Qonun hujjatiga muvofiq:

1) Zamonaviy tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish uchun yoshlarning startap va investisiya loyihalariga imtiyozli moliyaviy mablag‘lar ajratilishi;

2) Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, raqamli texnologiyalar tatbiq etilgan innovatsion loyihalar hamda ijtimoiy tadbirkorlik yo‘nalishidagi qo‘llab-quvvatlash choralari joriy etilishi;

3) “Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq 18 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 100 mln so‘mgacha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratilishi;

4) “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi asosida YATT sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, ta’sisчилari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlarning kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 5 mlrd so‘mgacha mablag‘lar ajratilishi belgilandi.

Yurtimizda yoshlar tadbirkorligini yanada rivojlantirish uchun Maktabdan tortib oliy ta’lim muassasalarigacha bo‘lgan bosqichlarda tadbirkorlikka oid fanlar kiritilmoqda. Yoshlar uchun "Biznes maktablari", seminar va master-klasslar, startap loyihalar tanlovlari tashkil etilmoqda. Qishloq joylaridagi, kam ta’minlangan oilalardan chiqqan yoki ishsiz yoshlar, shu jumladan, yosh ayollar uchun alohida dasturlar ishlab chiqilgan. Bu orqali ularga o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish, kasb-hunar o‘rganish va ijtimoiy moslashuvga erishish imkoniyatlari yaratilmoqda. Yoshlar tadbirkorligini rag‘batlantirishda ularni doimiy ravishda ma’lumot bilan ta’minlash ham muhim hisoblanadi. “Yoshlar portal”, “Yoshlar

tadbirkorligi” elektron platformasi kabi axborot resurslari orqali zarur maslahatlar, hujjatlar namunasi, kredit olish tartibi, bozor tahlillari bilan tanishtirish ishlari yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, "Tashabbusli byudjet" mexanizmi orqali ham yoshlarning o‘z hududidagi muammolarni hal etish bo‘yicha loyihalar ishlab chiqishi va moliyalashtirishi rag‘batlantirilmoqda. Bu esa ularni jamiyatda faollikka undaydi. Natijada, yoshlar nafaqat o‘z hayotini, balki o‘z jamiyatining taraqqiyotiga ham hissa qo‘sha oladigan faol kuchga aylanmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda yoshlar ishtirokidagi kichik biznes subyektlarining soni sezilarli darajada ortmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish – bu nafaqat iqtisodiy barqarorlik omili, balki jamiyatda ijtimoiy faollik, yangilik sari intilish va kelajak avlodning o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiluvchi kuchli vositadir. Davlat siyosatining ushbu yo‘nalishga qaratilayotgan e‘tibori yosh avlodning manfaatlarini himoya qilish, ularning orzulari va g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Shunday ekan, biz yoshlar ham bu imkoniyatlardan samarali foydalanib, mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PQ–5106-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-3255680>
2. <https://lex.uz/acts/-3026246>. Qonunchilik bazasi.
3. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7387025>. Qonunchilik bazasi.
4. <https://lex.uz/docs/-3826820> Qonunchilik bazasi.
5. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023.